

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

J.Qodirov	
Shaxsga yo'naltirilgan jismoniy tarbiya ta'limi jarayonida pedagogik monitoringni amalga oshirish omillari.....	99
M.Hamidjonov, N.Shodilbekov	
Futbolchilarning ruhiy va jismoniy jihatdan tayyorlashning asosiy usul va vositalari.....	103
B.Qurbonova	
Talabalarni hamkorlik pedagogikasi asosida ijtimoiy hayotga tayyorlashda moslashuvchanlik imkoniyatlarini oshirishni modellashtirish.....	107
D.Xakimova	
Innovatsion salohiyat pedagog faoliyatining ajralmas qismi.....	111
B.Umarov	
Raqamli texnologiyalar asosida pedagoglarning professional kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	114
Sh.Ro'zaliyev	
"Geymifikatsiya" va "Didaktik jarayonlar"ning metodik tavsifi.....	118
F.Yuldashev	
Ko'ngilli yong'in-qutqaruvchilarni o'qitishda interaktiv trenajyorlardan foydalanishning ahamiyati.....	123
A.Rajabov	
Mirbobo Naqshbandiy qalb zikri va uning turlari to'g'risida.....	129
Z.Xamraqulov	
Jinoyat huquqining o'qitilishida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish asoslari.....	133
S.O.Omonova	
O'zbekistonda sportni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosati va bunda xotin-qizlar ishtiroki.....	138
A.T.Tuychiyev	
Raqamli texnologiyalar davrida tanqidiy fikrlashning ahamiyati.....	142
N.E.G'olibjon	
Oliy ta'lim talabalarining jismoniy sifatlarini aylanma mashqlar asosida rivojlantirish usullari.....	149
J.B.Hamraqulov	
Talabalarda ekologik axloqiy kompetentlikni shakllantirish imkoniyatlari.....	154

IQTISODIYOT

M.Adxamov	
Kichik mamlakatlarning milliy innovatsiya tizimlari raqobatchilik masalasi.....	158
A.A.Oripov	
Risklarni boshqarish tizimi asosida xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyati samaradorligini baholash.....	161

FALSAFA

M.Qaxxarova, M.Raximshikova	
Yoshlarning ongu tafakkurini shakllantirish va tarbiyalash mummosi.....	169
A.Sufiyev	
Tadbirkorlik madaniyatini oshirishning aksiologik va pragmatik omillari.....	175
B.G'aniyev	
Markaziy Osiyo mutafakkirlarining fuqarolik jamiyati haqida ilk ijtimoiy-falsafiy qarashlari.....	181
S.Yuldashev	
Jamiyat transformatsiyalashuvining yangi ijtimoiy-madaniy usullari.....	186
Sh.Usanov, E.Avazov	
Millatlararo munosabatlar mustahkamlanishida Surxondaryo viloyat turkman milliy-madaniy markazining o'rni.....	190
M.Choriyeva	
"Shoxnoma"da diniy ta'limotlar.....	195
K.Saydazimov	
Baholash va normalar mantig'ida axloqiy qadriyatlar.....	199
A.Mo'ydinov	
Ma'rifatli jamiyatni qurish va ma'rifatli inson sensualistik qarashining mohiyati.....	204

BAHOLASH VA NORMALAR MANTIG'IDA AXLOQIY QADRIYATLAR

ЭТИЧЕСКИЕ ЦЕННОСТИ В ЛОГИКЕ ОЦЕНОК И НОРМ

ETHICAL VALUES IN THE LOGIC OF ASSESSMENTS AND NORMS

Saydazimov Kamol Tulkunovich¹¹Saydazimov Kamol Tulkunovich– O'zbekiston milliy universiteti mustaqil tadqiqodchi,
ToshPTI o'qituvchisi**Annotatsiya**

Ushbu maqolada baholash va normalar mantiqda ahloqiy qadriyatlar tushunchalari tahlil qilinadi. Shuningdek, baho va normalarning ahloqiy jarayonlarda subyektiv yondashuvlari va ularning mantiqiy qonun va tamoyilarga asoslangan tahliliy tadqiqoti ko'rib chiqiladi. Hamda baholash mulohazalarining mantiqiy nazariyasi axloqiy qadr, baholash haqidagi hukmlarni rasionallikning formal mezonlarini asosida tahlili ko'riladi

Аннотация

В данной статье рассматривается этические ценности в ракурсе логики оценок и норм, а также проводится анализ субъективных подходов этических процессов оценок и норм. Кроме этого, исследовательская работа ознакомляет с оценками и нормами на основе логических законов и принципов.

Abstract

This article considers ethical values from the perspective of the logic of assessments and norms, as well as an analysis of subjective approaches to ethical processes of assessments and norms. In addition, the research work of assessments and norms based on logical laws and principles is reviewed.

Kalit so'zlar: *Baho va norma, baholovchi, chin yoki yolg'on mulohazalar, axloqiy qadriyat va baholash mantig'i, deontik mantiqda qadriyat tushunchasi.*

Ключевые слова: *Оценка и норма, оценочные, истинные или ложные высказывания, этические ценности и логика оценок, понятие ценности в деонтической логике.*

Key words: *Assessment and norm, evaluative, true or false statements, ethical values and the logic of assessments, the concept of value in deontic logic.*

KIRISH

Axloqiy qadriyatlar markazida yaxshilik va yomonlik masalasi insoniyat tarixida ijtimoiy jarayonlar markazida bo'lib kelmoqda. U falsafiy tafakkurning gnoseologik, mantiqiy jabhalarida ham o'z aksini topadi: ijtimoiy munosabatlar, axloqiy qonunlar, jamiyat xulq-atvor me'yorlarini ifodalovchi jamiyatning axloqiy qadriyatlarida namoyon etib keladi.

Aytish joizki, xalqimizning axloqiy qadriyatlari minglab yillar davomida shakllanib, rivojlanib kelmoqda. Ayniqsa buyuk mutafakkirlarning ma'naviy axloqiy qarashlari, fikrlari milliy ma'naviyatimizga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Qadriyatlar jamiyat taraqqiyoti, inson faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, axloqiy qadriyatlar negizini ifodalovchi elementlar: insonparvarlik, adolat, halollik, ezgulik va boshqa bir qator fazilatlarini bugungi kunda, jamiyatning ma'naviy yangilanishida va barkamol insonni tarbiyalashda xizmat qilmoqda.

Ma'lumki, axloqiy qadriyatlar jamiyat, shaxs hayotida shakllanib boradigan muhim asoslardan biri hisoblanadi va baholash mulohazalar va normalar esa uning shakllanib borishida muhim faktor sifatida ishtirok etadi.

Qadriyat – voqeikdagi muayyan hodisalarning umumbashariy, umuminsoniy, ijtimoiy axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan falsafiy-sotsiologik va aksiologik tushuncha. Jamiyat, shaxs va jamiyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsa, hodisa va voqealar: erkinlik ezgulik, tenglik, tinchlik, haqiqat, ma'rifat, madaniyat, moddiy va ma'naviy boyliklar, axloqiy xislat va fazilatlar hisoblanadi [1: 326-b]. Axloqiy qadriyatlar kishilar kundalik hayotdagi ijtimoiy muhit bilan bog'liq tizim ekan, u o'zida insonga xos bo'lgan xulq-odobi, xatti-harakati, va axloqiy kategoriyalarini namoyon etib boradi. Insoniyat tarixida kishilar o'rtasida turli bahs munozaralar asnosida baholash mulohazalari doimiy ravishda muhim bo'g'in bo'lib kelmoqda kelmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Qadriyatlar to'g'risidagi bahsda fikr-mulohazalarning kelishmovchiligi biron-bir obyekt yoki hodisaning turlicha baholanishi, qadriyatlar tizimidagi va qadriyatlar iyerarxiyasidagi farqlar bilan izohlanadi. Qadriyatlar bilan bog'liq iyerarxiya farqlari quyidagi amaliy vazifalarni bajarish talab qilinadi:

- **birinchisi**: opponentning nuqtai nazari asosida yotuvchi qadriyatlarni aniqlash va bilish;
- **ikkinchisi**: opponentning qadriyatlar strukturasi bilish orqali uni ishontirish va qo'yilgan maqsadga erishish uchun undan foydalanish;
- **uchinchisi**: qadriyatlar bilan bog'liq yana bir taktik usul mavjud bo'lib, unga ko'ra opponentning tezisi qadriyatlarga bog'liq bo'lmaydi. Bunday holatda tanqid qiluvchi tomon e'tiborini opponent keltirgan argumentlarni rad etishga qaratmasdan, ularni qadriyatlar tomonga yo'naltirishi lozim. Tezisi almashtirish xatosi yuz bermaydi. Chunki, tanqid tezisi qadriyat tomonga qaratilgan bo'ladi. Albatta, yuqoridagi vazifalarni hal qilish uchun qadriyat tushunchasining mazmuni va ma'nosini bilib olish va uning boshqa tushunchalar bilan aloqadorligi o'rganish zarur [2: 113-b].

Ma'lumki, axloqiy qadriyat aksiologiyaning asosiy kategoriyasi sifatida jamiyatda inson uchun biror ahamiyatga ega bo'lgan axloqiy normalar, jarayonlar, hodisalar, yondashuvlarni ifoda etishda ishlatiladi. Kundalik hayotda inson doimiy ravishda ba'zida shoshilinch tarzda u yoki bu yondashuvlar, qarashlarga yondashib ketadi. Albatta, axloqiy qadriyatlarni tushunish va bilish jarayoni haqiqatga mos mantiqiy qarorga kelishiga turtki bo'ladi.

Axloqiy qadriyat – axloqan to'g'ri (jamiyatda ustuvor bo'lgan normalarga javob beradigan) bo'lgan dunyoqarash, xulq-atvor, axloqiy prinsiplarga mos bo'lgan qadriyatlar tizimini ifodalovchi tushuncha bo'lib, axloqiy qadriyatlar shaxs tarbiya mexanizmining yuqori darajadagi oliy maqsadlar, intilishlarni namoyon etib boradi.

Mantiqiy baholash nazariyalari tizimli shakllantirish tajribalari G'arb olimlari Edmund Gusserl, Frans Brentano, A.A.Ivin tomonidan baholash ontologiyasi, afzalliklar fenomeni, absolyut baholash mantiqida o'rganilib borilgan.

Qadriyat baholanuvchi obyekt qanday bo'lishi kerakligi haqida subyektning fikri bilan obyektning o'zi o'rtasidagi munosabat orqali ifodalanadi. Agar obyekt unga qo'yiladigan talablarga mos bo'lsa, ya'ni qanday bo'lishi kerak bo'lsa, shunday bo'lsa "yaxshi" (ijobiy qimmatga ega) deb qabul qilinadi. Talabga javob bermaydigan obyekt esa "yomon" (salbiy qimmatga ega) deb baholanadi [3: 87-b]. Inson tabiat va jamiyatning asosiy elementi sifatida u ijtimoiy voqelik, jarayonlar markazida turadi va o'z navbatida obyektiv va subyektiv ijtimoiy jarayonlarda u o'z manfaatiga aloqador bo'lgan voqea-hodisalarga nisbatan ijtimoiy ta'sir ostida qoladi. Subyekt ijtimoiy munosabatga kirishar ekan, inson hayotiy tajribalari asosida chiqargan subyektiv xulosalari, baholash mulohazalari, ijtimoiy hayotdagi turli holatlarga o'z tafakkuri mezonlariga tayanib munosabat bildirishi mantiqiy bahoni yuzaga keltiradi.

Tadqiqot doirasida baholash subyekt sifatida shaxs, guruh, ijtimoiy institutlar, jamiyatni ko'ramiz. Mantiqiy diskursda baholash subyektining hayotiy tajribalari, baholanuvchi obyektga qaysi nuqtai nazardan yondashuvi va munosabat bildirishi, ijtimoiy tajribasi bahoda o'z aksini topadi. Shuningdek, baho yakka shaxsning ma'lumoti, kasbi, yashash tarzi, iste'dodi kabilar bilan ham chambarchas bog'liq bo'ladi.

Shaxsning axloqiy munosabatida jamiyatning axloqiy qoidalariga amal qilishi axloqiy bahoning shakllanishi uchun asos bo'ladi. Baholashning axloqiy ko'rinishlarini o'zaro tutashtirib turuvchi chorraha markazida insonning tarbiyaviyligi asos bo'lib turadi. Albatta, insonning turli voqea-hodisa, narsa va predmetlarga munosabati, baho berishi tildagi mavjud baholovchi birliklar vositasida yuzaga chiqadi.

Inson o'z hayoti, faoliyati jarayonida o'zini o'rab turgan obyektiv borliq bilan tinimsiz munosabatda bo'lar ekan, u predmetlar, hodisalar, turli vaziyatlarni, boshqa subyektlar xatti-harakatlarini, shuningdek, o'z imkoniyatlarini, harakatlari natijalarini baholab boradi. Mazkur holat subyektning subyektga bo'lgan munosabatida bahoning so'zlovchi psixikasi va ongiga ta'sir o'tkazuvchi vosita ekanligini ham ko'rsatadi.

Jamiyatning axloqiy hayoti deb kishilarning ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishda, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy faoliyatida, oilasida va kundalik turmushida yuzaga keladigan munosabatlar; ularning xulq-atvori, yurish-turishi; adolat, sadoqat, burch, baxt kabi bir qator tushunchalarda ifodalanadigan munosabatlarning majmuiga aytiladi [4: 280-b].

Baholash va normalarning tildagi mantiqiy ifodalanishida muhim o'rin egallar ekan, baholanayotgan predmetning subyekt uchun ijobiy yoki salbiy ahamiyatga egaligiga hamda subyektning obyektga nisbatan talab va ehtiyojiga bog'liq bo'lib keladi. Ma'lum normalar asosida baholanayotgan predmetga nisbatan munosabat bildirishi mavjud axloqiy qadriyatlar, zaruriy normalar asosida amalga oshiriladi. Albatta, jamiyat taraqqiy qilar ekan, kishilarning narsa va predmetlar, voqea-hodisalarga munosabati ham shunga mos holda o'zgarib turishi tabiiy. Shunday ekan, jamiyat tomonidan belgilab qo'yilgan me'yorlar, normalar, baho mezonlari, qat'iylashgan tasavvurlar ham ma'lum bir o'zgarishlarga uchraydi. Bir davr uchun maqbul ko'rilgan o'lchov va mezonlar boshqa davrda qabul qilinmasligi, talab va ehtiyojlarga mos kelmasligi axloqiy qadriyatlarining o'zgaruvchanlik tabiatini belgilaydi.

Aytish joizki, baholar ijobiy yoki salbiy mazmunga ega bo'ladi va o'zaro farq qiladi. Ijobiy baholashda baholash obyektiga xos xususiyatlar haqida ma'lumot berilganda ma'qullash sezilib turadi. Bunda ifodalanayotgan fikr subyektning baholash uchun asos bo'lgan faktlarga, aytilgan propozitsiya muhimligiga ishonchini o'zida aks ettiradi. Salbiy baholashda esa uning aksi kuzatiladi. Bunda ma'qullamaslik, norozilik, xatolikka ishora sezilib turadi. Baho tushunchasi argumentativ diskursning asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi [5: 118-b].

Qadimgi Yunon falsafiy maktablaridan biri stoiklarda, emotivizm kabi "mantiqiylik" va "amaliy" tushunchalarni bir biriga qarama qarshi qo'yilishini kuzatishimiz mumkin. Biroq Arastu ham bir oz avval o'zining "Metafizika", "Birinchi analitika" va "Topika" traktatlarida inson hatti-xarakatlarini boshqarishga moyil bo'lgan amaliy fikrlariga tanqidiy yondashadi. U deontik va assertorik (kategorial) argumentlarga asoslangan amaliy sillogizmlarni misol tariqasida keltiradi: "Birgina fikr umumiylikka, ikkinchi fikr esa yakkalikka ya'ni ruhiy asos tegishli bo'lar ekan, bu ikki hukmlardan paydo bo'lgan fikr (poetika) bilan bog'liq bo'lgan ruhiy asos o'z xulosasini yuzaga keltiradi, o'z navbatida bu xulosa xulqda (amalda) namayon etadi". Masalan, "agar barcha shirin bo'lgan narsalarni ta'mini ko'rish kerak bo'lsa" (yakkalik holati), imkoniyat va hech qanday to'siqlik bo'lmasa o'sha zaxotiy oq ularni amalga oshirish kerak (xulq-atvor) [6: 197-b].

Mulohazalar ham tushunchalar kabi taqqoslanadigan (umumiy subyekt yoki predikatga ega bo'lgan) va taqqoslanmaydigan turlarga bo'linadi. Taqqoslanadigan mulohazalar sig'ishadigan yoki sig'ishmaydigan bo'ladi. Mantiqda ikki mulohaza birining chinligidan ikkinchisining xatoligi zaruriy kelib chiqadigan bo'lsa, ular o'zaro sig'ishmaydigan mulohazaga aytiladi. Sig'ishmaydigan mulohazalar bir vaqtda chin bo'la olmaydi. Sig'ishadigan mulohazalar aynan bir fikrni to'liq yoki qisman ifodalaydi. Sig'ishadigan mulohazalar o'zaro ekvivalentlik, mantiqiy bo'ysunish va qisman mos kelish (subkontrar) munosabatida bo'ladi.

Axloqiy qadriyatlarni normalar va baholashdagi reduktiv jarayonini tadqiq etar ekanmiz, baho normalar asosida shakllanadigan konstruktsiya ekanligini kuzatishimiz mumkin. Normalar fikr va harakat o'rtasidagi qadriy munosabatlarni ifodalaydi. Shuning barobarida normalar baholashning maxsus, yakka holati sifatida ko'rinadi.

Falsafa Qomusiy Lug'at. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti [2004. 289-b]. kelajakda kechadigan imkoniyatlarning natijalarini, ya'ni agent ishlab chiqara oladigan xarakterlar imkoniyatlar natijalarini, hamda kelajakda xar bir vaziyatda unga zarur bo'lgan barcha muqobil harakatlarning ochiqqligini e'tiborga olishimiz zarur. Ushbu kelajakdagi vaziyat va harakatlarning o'zaro bog'liqligi etikadagi konsekvensionalistik yondashuvga bog'liq emasligi haqida bayon etildi [Mekki J. 1977. 35-bet]. Bilish taraqqiyotining turli bosqich va bo'g'inlarida olam hamda uni bilish haqidagi mavjud tasavvurlarni, bilish metodi va vositalarini o'zgartirishning obyektiv zaruriyatini ifodalovchi holat. Muammoli vaziyat mavjud ilmiy tasavvurlar bilan qayd qilingan yangi faktlar o'rtasidagi ziddiyatning paydo bo'lishi yoki ana shu ilmiy tasavvurlar yetarli darajada tizimga solinmaganligi, yaxlit bir ta'limot sifatida asoslamaganligi natijasida vujudga keladi [D.Fayzixo'jaeva 2015]. Normalar ikki xil yo'nalishi mavjud: a) Negativ (nigilistik) va b) pozitiv (konstruktiv) yo'nalishlar [Ivin A. 1973]. Deontik intuitivizm namoyondalari Uilyam Devid Ross, Genri Sidjvik va Charli Brodlarga ko'ra majburiyatni ko'rsatuvchi hukmlar mantiqiy dalillarni talab etmaydi deb e'tirof etadilar. [Maksimov L. 1991].

Mazkur maqolada normativ tushunchalarning tabiati, tipologiyasi va tuzilmasini anglash hamda ulardagi chin fikrni ifoda qiluvchi muhim mantiqiy usullardan foydalanishning o'ziga xos tomonlari yoritiladi.

Deontik mantiqning qonunlariga ko'ra:

- “Majburiyatlarning mantiqiy natijasi – majburiydir.”
- “Agar ma’lum bir harakat taqiq oqibatga olib borsa, harakatning o’zi taqiqlangandir.”
- “Agar ikkala harakatni amalga oshirish majburiy bo’lsa, demak har birining amalga oshirilishi majburiy.”

Deontik mantiq ko’pgina ilovalarni topishga uringan. Normalarning mantiqiy xarakteristikasini bilishda normalarning ilmiy bilishda, axloqda baho va normalarning o’zaro munosabati va ularning o’rnini topish kabi savollarni aniqlash zarur. Normalarda foydalaniladigan va uni asoslaydigan axloqiy mulohazalar mantiqiy qonunlarga bo’ysuadigan bilimga tayanadi. Bu esa o’z navbatida axloqiy qadriyatlarining obyektivi va o’rganish metodlari haqida tasavvurlarni oydinlashtiradi, ularni normalar orqali tizimlashtirishga yordam beradi.

Falsafiy va axloqiy qadriyatlarni tahlil etish deontik mantiqning bir qator mantiqiy masalalarni yangi nazar ostida qo’rib chiqishga majbur qiladi. Xususan, axloqda chin bo’lmagan normativ mulohazalarni mantiqiy nazariyasini tizimlashtirilishi mantiqda “haqiqat” prizmasidan uzoqlanishini bildiradi. Masalan, deontik va baholash mantiq’i jamiyatdagi “erkin harakat” ramkasida rasmiylashtirib borishiga urinadi. Shaxs erkin harakati uning befarqlik tushunchasi bilan baholanadi: “harakat majbur va taqiqlangan bo’lmasa erkin harakatga taqqoslanadi.” Biroq axloqda erkin harakat normativ kategoriya sifatida belgilanmaydi. Bu jarayon shaxsning individual axloqiy qadriyatlari: xohish istak, qiziqish, intilishlari bilan bog’liq bo’ladi.

Istak tushunchasi so’zlovchining kommunikativ niyati asosida hosil bo’ladigan darak, so’roq va buyruq gaplar bilan bir semantik kategoriyani – gapning ifoda maqsadi kategoriyasini hosil qiladi. Istakni ifodalovchi fe’llar muhim o’rin tutadi. Istakni ifodalovchi fe’llar, bir tomondan, his qilish, sezish fe’llariga yaqin bo’lsa, ikkinchi omondan, ular xohishni anglatuvchi fe’llarga yaqindir: istak ichki ruhiyat talablarini his qilish, tushunib yetish, shuningdek, ularni qondirishga intilish bilan bog’langan.

Qani endi, tezroq kanikul boshlansa (istak)

Borsang, onang xursand bo’ladi. (shart)

Yoshi ulg’aysa ham, hech aqli kirmadi (to’siqsizlik) [7: 313-b].

Baholash va normalar mantiq’i axloqiy qadriyatlar ichida erkinlik tushunchasi majburiyat tushunchasiga zidlikni ko’rsatadi: majburiy harakat – erkin va aksincha erkin harakat – majburiy bo’la olmaydi. Erkin bo’lmagan harakat – bu shunchaki majburiyat emas, balki, individning intilishlarni amalga oshishiga to’siqlikni ko’rsatadi. Lekin bir tomondan, qadriyatlarining ijobiy tomonini amalga oshirishga qaratilgan bo’lishi ham mumkin. Agar majburiyat va ijobiy qadr-qimmat bir vaqtda mos kelsa, unda individning majburiy talabni bajarilishi – “noerkin harakat” ekanligiga shubha tug’iladi. [7: 215 b.]

NATIJAR VA MUHOKAMA

Axloqiy qadriyatlar haqiqat mezoniga ko’ra bir biriga mos keladigan va umuminsoniy ahamiyatga ega bo’lgan ijtimoiy baho va normalarning sifat jihatidan xilma xilligida mavjud. Bunday uchrab turadigan ta’riflar orasida quyidagilarni keltirish mumkin: “zavq-huzur baxsh etadigan” “aql bovar qiladigan”, “jamiyat mentalitetiga mos keladigan”, “zaruratga mos keladigan” va hokazolar. Bu kabi iboralar haqiqatdan ham bir xil chinlikka egami yoki yo’qmi? Albatta shubhalanish jarayoni mavjud. Falsafada odatda bu kabi savollarga javob berishdan oldin axloqiy fikrning ma’lum sohalarni tipologiyasiga ajratadilar, turli tushunchalarni ajratadilar.

Jamiyatdagi axloqiy qadriyatlarni talqin etuvchi ahamiyatga molik yo’nalishlar quyidagilardan iborat:

1. Gedonizm – (Yun. Hedone – huzur halovat, rohatlaish) – huzur-halovatga, lazzatlanishga intilish insonning oliy maqsadi deb hisoblovchi axloqiy ta’limot [8: 73-b].

2. Evdomonizm – (Yun. Eudaimonia – rohat-farog’at, baxt-saodat.) – baxt saodatga intilishni inson aqliy faoliyatining mezoni hamda asosiy harakatlantiruvchi kuchi deb hisoblovchi axloqiy ta’limot [9: 306-b.]

3. Konsekvensionalizm – (lot. – oqibat, xulosa,natija.) – jamiyat axloqiy baholash mezonini shaxs, jamiyat xulq-atvor natijasining ustuvorligini ifodalaydigan axloqiy nazariya.

4. Utilitarizm – (lot. – foyda, manfaat.) – axloqiy qadriyat inson harakatlarining natijasida ulkan foyda keltirish bilan belgilanadigan axloqiy ta’limot.

Baholash va normalar mantiq’ida axloqiy qadriyatlar qiymatini belgilash faqatgina jamiyat hayotida talablarga rioya qilish va bo’ysunishdan iborat emas.

FALSAFA

Jamiyat va shaxsning axloqiy ongini “amaliy aql” doirasida aniqlab bo‘lmaydi. “Yaxshilik qilish va yomonlikdan saqlanish” – bu iroda avtonomiyasiga ega bo‘lgan shaxs uchun mo‘ljallangan axloqiy maksimal. Yetuk axloqan shakllangan shaxs yomon yoki yaxshi ishlar, harakatlarni ro‘yxatini tasvirlashi mumkin, lekin yaxshilik va yomonlik nima ekanligini o‘zi hal qilishi zarur. “Erkin tanlov doim mulohaza orqali amalga oshadi. Eng yaxshisini afzal bilish birinchi navbatda muhokama so‘ng esa qaror qabul qilishni nazarda tutadi” [9: 4-b].

XULOSA

Jamiyatdagi yuz berayotgan ba’zi ijtimoiy voqealar, mavjud holatga nisbatan bildirilgan jamoatchilik fikrlari jamlanmasi mantiqda axloqiy prinsiplariga asoslangan baholovchi mulohazalarni shakllantirishda quyidagi masalalarga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi:

Birinchi, baholash mulohazalarining mantiqiy nazariyasi qadr, baholash haqidagi hukmlarni ratsionallikning formal mezonlarini kengayib borishini inobatga olish talab etiladi.

Ikkinchi, baholash mantiqini shakllanib borishi pirovardida baholash, qadr haqidagi mulohazalar irratsional va mantiqlikdan yiroq emasligini isbotlash.

Uchinchi, baholash mulohazalarining mantiqiy nazariyasi shakllanib borishi jamiyatdagi ba’zi masalalar yechimi tadqiqotida ma’lum bir konseptual sxematik jarayonni yaratish.

Jamiyatda talab etilayotgan normalarga amal qilinishi axloqiy qadriyatlarni shakllanib borishini ta’minlaydi va jamiyatning axloqiy hayotini barqarorlashtirib boradi. Umumiy ma’noda baholash mulohazalari voqelikdagi axloqiy ahamiyatga molik bo‘lgan munosabatini shakllantirib boradi. Deontik mantiqda normalar fikr va voqelik o‘rtasidagi talabchanlik munosabatini shakllanib borar ekan, jamiyat hayotida majburiyat, zaruriyat kabi tushunchalar bilan bog‘liqligini va normalarni axloqiy tizimda chinlik pozitsiyasidagi tushunchani shakllanishini, baholovchi mulohaza axloqiy qadriyat tushunchasiga baho, munosabatni bildirish jarayonini ifodalab boradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Falsafa ensiklopedik lug‘at. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. -T.: 2010.
2. Fayzixodjaeva D. Argumentlash va kommunikatsiya. Monografiya. -T.: 2021. “Shafolat nur fayz”.
3. Ивин А.А. Основания логики оценок. -Москва-Берлин.: 2015.
4. Yaxshilikov J.Ya., Muxammadiev N.E. Falsafa. Darslik. Samarqand. 2021.
5. Аристотель. Соч.: 4 том. -М.: Мысль, 1975-1984.
6. Umarov K.J. Xohish-istak konsepti – modallik kategoriyasi talqinida. Academic Research in Educational Science/ Volume 3/Issue 7/ 2022. July.
7. Ивин А.А. Логика оценок и норм. -М.: 2016.
8. Falsafa ensiklopedik lug‘at. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. -T.: 2010.
9. Боднар С.Н. Менталитет как отражение оценочного суждения. Иностранные языки: теория и практика. 2011. № 1(12).